

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKUL'TETI

Kimyo – ekologiya va uni o'qitish uslubiyati kafedrası

Ekologiya fanidan

REFERAT

MAVZU. Ba'zi bir umumiy ekologik muammolar va ularni yechish yo'llari

**Bajardi: Kimyo o'qitish metodikasi yo'nalishi 105 – guruh talabasi
Qo'shboqov Javlon**

Qabul qildi: dots.Mirzayev T

Jizzax - 2013

MAVZU. Ba'zi bir umumiy ekologik muammolar va ularni yechish yo'llari

KIRISH

1. XXI asrda barqaror rivojlanishning asosiy kontsepsiyasi
2. Hozirgi zamon tushunchasi bo'yicha noosfera kontsepsiyasi
- 2.1.Noosfera to'g'risidagi tushunchalarning asosiy mazmuni
3. Tashqi muhitni muhofaza qilish bo'yicha tuzilgan xalqaro konventsionalarda O'zbekistonning ishtiroki
4. Tashqi muhit va tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Hozirgi zamon ekologik krizisining asosiy xususiyatlaridan biri – uning globalligi, ya'ni keng miqyosda uchraganligi. Chunki, krizis sayyoramizning barcha qismiga tarqalgan yoki tarqalish xavfi ostida. Shu sababli bu krizisdan qutilish uchun eski an'anali usullardan foydalanish mumkin emas. Krizisdan qutilishning asosiy yo'llari: ishlab chiqarish usullarini, hamda tabiiy resurslardan foydalanish me'yorlari va hajmini o'zgartirish lozim.

Hozirgi vaqtda 100 – 120 mlrd tonnaga yaqin er osti boyliklar qazib olinmoqda, bu yer yuzidagi har bir insonga bir yilda 25 – 30 tonnaga to'g'ri keladi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich bundan ham 2 – 3 barobar ko'pdir.

Inson ishlab chiqayotgan va qo'llayotgan moddalar hamda energiya miqdori uning biologik ehtiyojidan 100 barobar ortiq. Hisoblarga qaraganda hozir er yuzidagi insonlar ehtiyoji uchun yiliga 2 mln tonna oziq – ovqat, 10 mln tonna ichimlik suvi va nafas olishi uchun milliardlab m^3 kislorod kerak bo'ladi.

Sanoatda foydalaniladigan resurslar va energiya kishilarning biologik ehtiyojidan taqqoslash mumkin bo'lmagan darajada ortiqdir.

Yer yuzida 10 mingdan ortiq suv omborlari mavjud bo'lib, ularda 7500 – 8000 km^3 suv to'plangan. Ana shunday miqdordagi suv hajmini Volga daryosi kamida 25 – 30 yil ichida quyadi.

Yer yuzida haydaladigan yerlarning oltidan bir qismi sug'oriladigan yerlarga to'g'ri keladi. Bu erlar har yili suv manbalaridan 1500 km^3 (6-7 ta Volga daryosi suvicha) suv bilan sug'orishni taqozo etadi.

Ana shu suvlarning hammasi ham o'z mo'ljali bo'yicha sarf bo'lmasdan, ulardan noto'g'ri foydalanish natijasida bir qismi erlarni sho'rlantirishga yoki botqoqliklarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Dasht ekosistemi degan tabiiy ekosistemalar deyarli yo'qolib bormoqda. Inson qo'li tegmagan o'rmonlar ham juda kam qolgan.

Tashqi muhit va ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishni bir-biridan ajratgan holda alohida qaramaslikni xis etish barqaror rivojlanish kontseptsiyasining asosini tashkil etadi. Demak, anashu nuqtai nazardan qaranganda sog'lom ijtimoiy – iqtisodiy muhitda sog'lom tashqi muhit mavjud bo'ladi. Birlashgan millatlar tashkilotining (KOONOSR) asosiy hujjatlari bo'lmish «XXI kun tartibi» da barqaror rivojlanishni kelgusida ta'minlaydigan keng ko'lamdagi masalalar ko'zda tutilgan. Ana shunday masalalarga iqlim o'zgarishining oldini olish, cho'llashishga qarshi kurashish, ekologik ta'limni kuchaytirish, turli xil ekologik uyushmalar ishlari va shu kabilar kiradi. Ana shunday ekologik muammolarni hal etishda inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarning muhimligini nazarda tutmoq zarur.

Hozirgi kunda jamiyatning farovonlik darajasini baholash mezonlari taklif qilinmoqda. Chunki ichki yalpi mahsulot (IYAM) va har bir jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar o'rniga BMT gumanitar rivojlanish «indeksi» ni (GRI) va stabil iqtisodiy barqarorlik «indiksi» (SIBI) ni kiritishni taklif qilmoqda. Masalan, gumanitar rivojlanish indeksi insonlarning umrini, ta'lim va turmush darajalarini yaxshilashga qaratilgan tabiiy resurslardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu mezonlar nuqtai nazaridan baholanganda jon boshiga ko'p daromad oladigan mamlakatlarning gumanitar indeksi past darajada bo'lishi mumkin. Masalan, Shrilanka respublikasida jon boshiga to'g'ri keladigan ichki yalpi mahsulot (IYAM) past darajada (bir yilda 2059 dollar) bo'lsa, gumanitar rivojlanish indeksi (GRI) baland bo'lib, 0,79 (maksimal 1 ga teng) ga tengdir.

Braziliyada bu ko'rsatgichlar mutonosib ravishda 4307 dollar va 0,78 ni tashkil etadi. Rivojlangan Amerika Qo'shma SHtatlari jon boshiga to'g'ri keladigan daromad bo'yicha eng yuqori o'rinni egallasa ham (bir yilda 17650 dollar), gumanitar rivojlanish indeksi bo'yicha dunyoda 19 – o'rinda bo'lib, Avstraliya, Kanada, Ispaniya va shu kabi davlatlardan orqada turadi.

1. XXI asrda barqaror rivojlanishning asosiy kontsepsiyasi

Hozirgi kunda umumiy ekologik xarakterga ega bo'lgan va echimini hal qilishini talab etadigan muammolarga V.V.Vernadskiyning noosfera to'g'risidagi barqaror rivojlanish kontsepsiyalari, ekologik muammolarga bag'ishlangan xalqaro shartnomalar va shu kabilar kiradi.

Kelgusi avlod qobiliyatini saqlab qolgan holda inson o'z ehtiyojlarini va talablarini qondira oladigan darajada kuzatiladigan rivojlanishni barqaror rivojlanish deyiladi.

Tashqi muhit va ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishni bir-biridan ajratgan holda alohida qaramaslikni xis etish barqaror rivojlanish kontsepsiyasining asosini tashkil etadi. Demak, anashu nuqtai nazardan qaralganda sog'lom ijtimoiy – iqtisodiy muhitda sog'lom tashqi muhit mavjud bo'ladi. Birlashgan millatlar tashkilotining (KOONOSR) asosiy hujjatlari bo'lmish «XXI kun tartibi» da barqaror rivojlanishni kelgusida ta'minlaydigan keng ko'lamdagi masalalar ko'zda tutilgan. Ana shunday masalalarga iqlim o'zgarishining oldini olish, cho'llashishga qarshi kurashish, ekologik ta'limni kuchaytirish, turli xil ekologik uyushmalar ishlari va shu kabilar kiradi. Ana shunday ekologik muammolarni hal etishda inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarning muhimligini nazarda tutmoq zarur. Bu sanoat va qishloq xo'jaligida ishlatiladigan texnologiya, qashshoqlikka qarshi kurashish, ehtiyojlar tizimini o'zgartirish doimiy yashaydigan uy joylarni ko'paytirish, har xil toifadagi aholining rolini ko'paytirish va shu kabilar. Ana shularga o'xshash 40 ga yaqin masalalar 4 ta bo'limga birlashtirilgan.

- A) Harakat dasturi;
- B) Ijtimoiy-iqtisodiy aspektlar;
- V) Aholining rolini kuchaytirish;
- G) Bajarish vositalari.

Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan yana iqlim o'zgarishining oldini olish, o'rmonlarni asrash, biologik turli-tumanlikni muhofaza qilish bo'yicha ham kontsepsiyalar qabul qilindi.

Birlashgan millatlar tashkiloti barqaror rivojlanishni e'lon qilib barcha davlatlardan shu kontsepsiyalar asosida o'zlarining milliy barqaror rivojlanish kontsepsiyalarini qabul qilishini so'ragan va hozirgi kunda ko'pchilik davlatlar, shu jumladan bizning respublikamizda ham shunday kontsepsiyalar qabul qilingan.

Barqaror rivojlanish kontsepsiyasini akademik M.M.Maiseev tan olmaydi. Uning aytishi bo'yicha hozirgi kunda va bundan keyingi yaqin yillarda ham barqaror rivojlanish to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas. Chunki, deydi u, barqaror rivojlanishga qarab ishlash hozirgi ekologik holatni oddiylashtiradi, insonlarning ekologik muammolarining naqadar murakkab ekanligini sezmaslikka, ularni echish yo'llarini topishda qiyinchiliklarga to'g'ri kelishlari mumkinligini ta'kidlaydi.

2. Hozirgi zamon tushunchasi bo'yicha noosfera kontsepsiyasi

Noosfera tushunchasi frantsuz olimlari E.Lirua va P.Teyyara, De SHardenalar tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, aqli qatlam (sfera) degan ma'noni anglatadi. Keyinchalik bu tushunchani akademik V.I.Vernadskiy rivojlantirib noosfera bu biosferaning qonuniy asosida rivojlangan bir davri bo'lib, bu rivojlanishda inson asosiy belgilovchi rolni o'ynaydi, dedi. Hozirgi kunda noosferani tushuntiruvchi bir qancha kontsepsiyalar mavjud bo'lib ulardan birining aytishicha, noosferaning mohiyati inson faoliyati bilan bog'liq va noosferadagi hozirgi ekologik vaziyat insonlarning aqliy ta'siri oqibatida vujudga kelgan. Boshqa birovlarining ta'kidlashicha, biosfera shunday rivojlanish darajasiga borib etdiki, unda bo'lib o'tadigan jarayonlar inson yordamida boshqariladi. Akademik V.I.Vernadskiy inson o'ziga kerakli mahsulotlar va shunga o'xshash boshqa moddiy boyliklarni biosferadagi tabiiy jarayonlarga kamroq aralashgan holda olishni o'rganishi lozim, degan edi.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, V.I.Vernadskiy biosferaning o'rniga keladigan noosferaning asosiy konturlarini belgilab bergan xolos.

Biosferadan noosferaga o'tish mexanizmi va noosfera atamasining o'zi hali to'liq'icha yoritib berilmagan.

2.1.Noosfera to'g'risidagi tushunchalarning asosiy mazmuni

N.N.Maiseev tamonidan rivojlantirilgan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Noosferagacha uzoq muddat davrda noosfera oldi davr bo'lib o'tadi. Bu davrda insoniyat biosferada mavjud bo'lgan qonuniyatlarni tushunib etishi lozim va u biosferada bo'ladigan jarayonlarda o'z o'rnini topa bilishi kerak. Hozir aynan ana shunday davr hisoblanadi.

2. Bu noosfera oldi davrida insoniyat tabiatga zarar keltirmayman degan printsiplarda yashashlari lozim, biosferaga kuch ishlatishdan, tabiatni o'ziga bo'ysindirish va shu kabi tushunchalardan voz kechishi lozim. Milliard yillar maboynda mavjud bo'lgan planetamizdagi hayotni asrash, uni toza saqlash va kelgusi avlodlarga obod va toza holda saqlash kabi ma'suliyatli vazifa (insoniyat) elkasida turibdi.

3. Insonning barcha hayot faoliyatini noosferizatsiyalashda tashkiliy tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Ana shulardan eng muhimlari xalqaro ekologik yoki noosferalik tashkilotlarni, institutlarni tuzish xalqaro ekologik huquqlarni yaratishdir. Ana shu tashkil qilingan ekologik institutlar ishlab chiqqan tavsiyanomalar asosida ekologik asoslangan qarorlar qabul qilinishi kerak. Bu qarorlar ekologik tashkilotlarga a'zo bo'lib kirgan barcha davlatlar uchun majburiydir. Ana shunday muhim vazifani N.N.Maiseevning fikricha BMT (birlashgan millatlar tashkiloti) bajarishi mumkin. Buning uchun albatta BMT ustaviga o'zgarishlar va aniqliklar kiritilishi lozim.

4. Tabiatga zarar keltiruvchi, ekologik muhitni buzuvchi inson faoliyatining ba'zi bir qirralarini man etadigan qarorlar ham qabul qilinishi lozim. YA'ni N.N.Maiseevning ta'biri bilan aytganda insonlar rivojlanishni tabiat bilan kompleks holda olib borishi kerak.

Albatta, ekologik muommolarni echishda ekologik bilimlar, kishilarning hoxishi yoki man etadigan qarorlar etarli darajada bo'ladi deb hisoblash noto'g'ri. Bu yuqorida aytilgan tadbir choralar bilan bir qatorda ekologik muhitni sog'lomlashtirishning asosiy mezonlaridan biri haqiqiy madaniy insonni tarbiyalash. SHaxs, jamiyat va tabiatning garmoniyasini taminlash lozim. Aytishlariga qaraganda, bizgacha bo'lib o'tgan ekologik krizislar aynan ana shunday garmoniyaning buzilishi oqibatida paydo bo'lgan. Rio de Janeroda e'lon qilingan kontseptsiyaga asosan shunday xulosa kelib chiqadiki, hozirgi kunda ekologik krizislarning oldini olish yo'llari topilgan, faqat uni amalga oshirish uchun harakat, kuch talab etiladi. Biroq noosfera nuqtai nazaridan yondoshganda hozirgi kunda vaziyat jiddiy va ancha murakkab hisoblanadi, va bu

krizisdan chiqish noosferaga o'tish yo'llarini topish uchun barqaror rivojlanish uchun, juda qiyin, uzoq va qarama-qarshi davrni o'tish lozim bo'ladi.

V.I.Vernadskiy noosfera bu kishi tamonidan boshqariladigan biosfera deb atagan degan tushunchalar ham bor, biroq boshqariladigan biosfera to'g'risida so'z yuritish mumkin emas, chunki biosferadagi jarayonlar shunchalik murakkab, ko'p qirrali, turli-tuman va o'zgaruvchanki, ularni boshqarib bo'lmaydi.

Ana shunday qiyin vaziyatdan chiqishning asosiy yo'li, dedi V.N.Voronkov (1999), - insonning biosferadagi ko'rsatayotgan ta'sirini kam deganda 10 barobar kamaytirishdir. YA'ni, boshqacha qilib aytganda biosferada 1 % dan ortiq birlamchi mahsulot olish mumkin emas, yoki hozirgi er yuzida mavjud bo'lgan 1-3 % qo'riqxonalar hududi hissasini 45-50 % gacha va o'riladigan o'rmonlarning yoshini 80-100 dan yoki 300 yilga oshirish, er shari aholisini miqdorini 10 barobar kamaytirish demakdir. Bu xil tushuncha mualliflarining tashvishlarini tushungan holda ularning ba'zi bir xulosalari bilan hamkorlik qilish qiyin. Masalan, o'rmonlarni 80-100 yoshda emas, balki 300 yoshda qirqish lozim degan tushunchalari tajribalar yoki kuzatishlar bilan asoslangani yo'q.

Xuddi shunday aholi sonini keskin qisqartirish yoki er yuzining diyarlik yarmisini qo'riqxonalarga aylantirish lozimligi to'g'risidagi fikrlari ham haqiqatdan uzoqroqdir.

Noosferani boshqariladigan biosfera deb atashni ham tushunish qiyin, chunki biosferani ular aytganidek boshqarish xavfli va noreal. Tabiiy va ayniqsa, sun'iy ekosistemalarni boshqarib turish inson qo'lidan keladi.

Yangi mafkuraviy printsiplarni shakllantirishga qaratilgan fikrlar, takliflar dolzarb va istiqbolli hisoblanadi. Inson faoliyatini baholashda uning faqat iqtisodiy talablarini qondirishdan voz kechish lozim. YOki davlatlarning rivojlanish darajalarini va jamiyatning farovonligini baholashda ularning tabiiy resurslardan to'liq foydalanishga, havo, suv va boshqa muhitlarni ifloslanishidan asrash choralari ko'rishga ko'proq e'tibor berish kerak bo'ladi.

Hozirgi kunda jamiyatning farovonlik darajasini baholash mezonlari taklif qilinmoqda. Chunki ichki yalpi mahsulot (IYAM) va har bir jon boshiga to'g'ri

keladigan daromadlar o'rniga BMT gumanitar rivojlanish «indeksi» ni (GRI) va stabil iqtisodiy barqarorlik «indiksi» (SIBI) ni kiritishni taklif qilmoqda. Masalan, gumanitar rivojlanish indeksi insonlarning umrini, ta'lim va turmush darajalarini yaxshilashga qaratilgan tabiiy resurslardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu mezonlar nuqtai nazaridan baholanganda jon boshiga ko'p daromad oladigan mamlakatlarning gumanitar indeksi past darajada bo'lishi mumkin. Masalan, SHrilanka respublikasida jon boshiga to'g'ri keladigan ichki yalpi mahsulot (IYAM) past darajada (bir yilda 2059 dollar) bo'lsa, gumanitar rivojlanish indeksi (GRI) baland bo'lib, 0,79 (maksimal 1 ga teng) ga tengdir.

Braziliyada bu ko'rsatgichlar mutanosib ravishda 4307 dollar va 0,78 ni tashkil etadi. Rivojlangan Amerika Qo'shma SHTatlari jon boshiga to'g'ri keladigan daromad bo'yicha eng yuqori o'rinni egallasa ham (bir yilda 17650 dollar), gumanitar rivojlanish indeksi bo'yicha dunyoda 19 – o'rinda bo'lib, Avstraliya, Kanada, Ispaniya va shu kabi davlatlardan orqada turadi.

Atmosferadagi SO₂ ning emissiyasini kamaytirishga juda katta e'tibor berilmoqda. L.Braunning fikricha yaqin 30 yillar orasida (bu maksimal qabul qilingan muddat). Hozirgi kunda bir yilda atmosferaga ajralib chiqayotgan 6 milliard tonnadan ortiq SO₂ ning miqdorini 2 milliard tonnaga tushirish lozim. Ana shu muddatga borib ko'mir va neft mahsulotlari yoqish amalda tugatilishi kerak. Uning o'rniga quyosh, shamol, geotermal issiqlik va shu kabilardan energiya ajratib olinishi mo'ljallanmoqda. Bundan tashqari tashqi muhitni ifloslantirishga qaratilgan tadbirlarga soliq solish ko'zda tutiladi.

Insonning talab va hoxishlarini uzluksiz qondirish sohasida olib borilishi lozim bo'lgan yo'llar hozirgi kunda iqtisodiy, mafkuraviy va ekologik nuqtai nazaridan o'zini oqlamaydi. Inson uchun bunday yo'l band (yopiq) hisoblanadi. Bunday yo'l bilan ba'zi bir davlatlar borishi mumkin, biroq barcha insoniyatning bu yo'l bilan rivojlanishi o'lim bilan tengdir.

Amerikalik olim Allan Dloringning aytishicha rivojlanishning bu modeli planitamizga o'lchab bo'lmaydigan darajada zarar keltirib boy yashaydigan 1 milliard

aholisi uchun maqbuldir. Biroq bu model planetamizdagi barcha aholi uchun amalga oshirish mumkin emas. Bordiyu, barcha xalq ana shunday boy yashashga intilsa unda ular maqsadga yyerishmasdan turib planetamiz bo'shab qolishi va uning yuqolib ketishi turgan gap. SHu boisdan quyidagilarni eslatib o'tish o'rinlidir.

Rivojlangan mamlakatlar xissasiga hozirgi kunda atmosferaga ajralib chiqayotgan SO_2 ning 2/3 qismini va oltingugurd oksidining 3/4 qismi to'g'ri keladi.

Azon qatlamini buzadigan moddalarning 90 % ana shu davlatlarda ishlab chiqarilmoqda. Bir yilda jon boshiga ajralib chiqariladigan SO_2 ning miqdori dunyo bo'yicha o'rtacha 1,08 tonnani tashkil etgan holda bu ko'rsatkich AQSH da 5,03, Kanadada 4,24, Sobiq Ittifoqda 3,68, YAponiyada 2,12, Xitoyda 0,41, Negeriyada 0,09 va Zoirida 0,03 tonnaga teng.

Er yuzi aholisining 8 % avtomobillarida yuradi. SHaharning havosi asosan anu shu transportlardan ajralib chiqadigan CO_2 va azot oksidlari bilan ifloslanmoqda. Tabiiy resurslarni qazib olish va ularni qayta ishlashni takomillashtirish yo'li bilan resurslarni tejash hamda tashqi muhitga chiqariladigan zararli moddalar miqdorini kamaytirishga yyerishish mumkin. Chunonchi, bir qator mamlakatlarda jumladan, Rossiyada ham neftni qazib olish uning quduqlardagi umumiy zahirasiga nisbatan 30 % ni tashkil etadi. Neft qazib olishning ilg'or usullaridan foydalanilsa bu ko'rsatkichni 60 – 70 % gacha ko'tarish mumkin bo'ladi.

Hozirgi kunda ko'mir qazib olinadigan shaxtalarda ko'mirning 50 % er ostida qolib ketmoqda.

Yog'ochni qayta ishlash sanoatida ham o'lkan rezervlar mavjud. YOg'och sanoatida hozirgi kunda asosan uning asosiy yog'ochlik qismi (poyasi) ishlatiladi, barglar shox – shabbalari va ildizlari esa ishlatilmasdan qolib ketmoqda, vaholangki ular daraxtlarning 50 % ini tashkil etadi.

Hozirgi kunda SHvetsiyada daraxtlardan to'la foydalanish loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu loyiha asosida ish tashkil qilinganda ildiz va tunkalar hisobida qo'shimcha bir yilda 25 – 30 million m^3 yog'och materiallari ishlab chiqarish mumkin. Energiya nuqtai nazaridan qaralganda bu 5 million tonna neftga to'g'ri keladi.

CHiqindilarni qayta ishlash sohasida ham katta imkoniyatlar mavjud. Mahsulotlarni ikkilamchi ishlab chiqarish nafaqat tejamkorlikka olib keladi, balki u tashqi muhitni ham kamroq ifloslantiradi. Masalan, rudadan cho'yan ajratib olish, metallomdan ajratib olishga qaraganda 2 – 3 barobar qimmatga tushadi, uning ustiga qayta ishlashda tashqi muhit deyarli ifloslanmaydi.

Mahsulotlarni ishlab chiqarishda yangi ilmiy texnologiyalarga asoslanish ham katta tejamkorlikka va ekologik tozalikka olib keladi.

Hozirgi kunda yangi texnologiya asosida yoqilg'ini kam sarflaydigan tejamli avtomabillar yaratilmoqda. Ana shunday avtomabillardan biri «Volvo» markali avtomobil bo'lib u 4 ta passajerga mo'ljallangan va 100 km ga 2,6 litr yoqilg'i sarflaydi, xolos. 2030 yilga borib bunday tipdagi avtomabillar sarflaydigan yoqilg'i miqdorini 2,3 litrga tushirish mo'ljallanmoqda.

Uylarni issiq saqlaydigan moslamalar bilan jiqozlash uylarni isitishga sarflanadigan yoqilg'i miqdorini 3 – 10 barobar kamaytirishga olib keladi. Oddiy lampalarni lyuminetsentli yoritgichlar bilan almashtirish esa elektroenergiya sarfini 3 – 4 barobar qisqartiradi. Uning ustiga keyingi yoritgichlar 6 – 7 marotaba ko'proq xizmat ham qiladi.

3. Tashqi muhitni muhofaza qilish bo'yicha tuzilgan xalqaro konventsiyalarda O'zbekistonning ishtiroki

Tashqi muhitni muhofaza qilish butun dunyo jamoatchiligining muhim vazifasidir va u xalqaro konventsiyalar va kelishuvlar bilan tartibga solib turiladi.

O'zbekiston mustaqillikka yyerishgandan so'ng o'zining mustaqil ekologik siyosatini shakllantirib xalqaro ekologik uyushmalar va kelishuvlar borasida faol harakat qilmoqda.

Hozirgi kunda Respublikamiz 10 dan ortiq konventsiyalarga qo'shilgan. Ular quyidagilardir:

- 1) Tabiatga zarar keltirishga qaratilgan har qanday harbiy va boshqa xil ta'sirlarni man etish konventsiyasi (5 oktyabr 1978 yilda);
- 2) Ozon qavatini himoya qilish Vena konventsiyasi;
- 3) Ozon qavatini buzadigan maddalar bo'yicha Monreal qarori (18 may 1993 yil qo'shilgan);
- 4) Xavfli chiqindilarni tashqariga tashib chiqarishni nazorat qilish bo'yicha Bazel konventsiyasi (22 dekabr 1995 yilda kirgan);
- 5) Iqlimning o'zgarishi bo'yicha BMT ning Ramoch Konventsiyasi (10 iyun 1993 yilda kirgan);
- 6) Biologik turli – tumanlik konventsiyasi (6 may 1995 yilda kirgan);
- 7) CHo'llanishga qarshi, yoki jiddiy cho'llanishni o'z boshidan kechirayotgan Afrika qit'asi bo'yicha BMT konventsiyasi (31 avgust 1995 yilda kirgan);
- 8) YUqolish arafasida turgan yovvoyi flora va faunalarning xalqaro savdosi bo'yicha konventsiya (1 iyul 1997 yilda kirgan);

9) Tabiat va madaniy merosni asrash konventsiyasi (22 dekabr 1995 yilda kirgan);

10) Migratsiya qiluvchi (ko'chib yuruvchi) yovvoyi hayvonlarni asrash bo'yicha Bonn konventsiyasi (1 may 1998 yilda kirgan).

Bulardan tashqari O'zbekiston Respublikasi tashqi muhitni muhofaza qilish bo'yicha 12 ta xalqaro kelishuvlarga qo'l qo'ygan.

4. Tashqi muhit va tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng u xalqaro iqtisodiy va siyosiy tizimlar bilan integratsiyani kuchaytirdi va natijada har qanday ekologik muammolarni echish uchun sharoit tug'ildi. Hozirgi kunda tashqi muhitni muhofaza qilish Respublikamizda bo'layotgan iqtisodiy islohatlarning bir bo'lagi bo'lib qoldi.

O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy siyosati, uning integratsiyasi ishlab chiqarish bilan tashqi muhitning o'zaro muvofiqligi asosida o'tkazilmoqda. Bu siyosat xalqimiz va davlatimiz oldida turgan ekologik muammolarning naqadar jiddiy ekanligini sezgan holda olib borilmoqda.

Hozirgi kunda aholining ekologik xavfsizligi O'zbekiston Respubliasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan. Bundan tashqari, mustaqillik davrida tabiatni muhofaza qilish va ekologik muammolarni odilona echishga bag'ishlangan 100 dan ortiq hujjatlar qabul qilingan.

Ekologik munosabatlarni tartibga solib turuvchi asosiy hujjatlardan biri – Respublikamizda 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish Qonuni»dir. Bu qonun tashqi muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan to'g'ri (ratsional) foydalanish, ekologik sistemalar, tabiiy komplekslar va ayrim biologik ob'ektlarni asrashning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy negizini aniqlab beradi. Inson uchun toza va qulay muhit yaratishni kafolatlaydi. U tashqi muhitni asragan holda Respublikamizni stabil rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, biologik turli-tumanlikni, inson salomatligini va madaniy merosimizni saqlab qolishga imkon yaratadi.

1992 yil 3 iyulda Respublikamizda «Davlat sanitar nazorati to'g'risida» Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun xalqimizning ekologik xavfsizligini tartibga solib, insonning toza tashqi muhitga ega bo'lish huquqini mustaqkamlaydi, har qanday

iqtisodiy faoliyatning toza (sanitar holati) bo'lishini talab etadi, sanitar standartlar, me'yorlar va qoidalarning buzilishini man etadi.

1993 yil 6 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni Respublikamizning suvga bo'lgan munosabatlarini tartibga soladi, xalq xo'jaligi, aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan suvdan to'g'ri foydalanishni ta'minlaydi, suvni ifloslanishi va sho'rlanish holatlarining oldini oladi hamda insonlarning suvga bo'lgan huquqlarini kafolatlaydi.

1996 yil 27 dekabrda «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida» Qonun qabul qilinib, unda davlat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, jomoa birlashmalari va fuqarolarning atmosferani asrash bo'yicha faoliyatlarini tartibga solish huquqlari berilgan. Bu qonun atmosfera havosini toza tabiiy holda saqlashga uni kimyoviy, fizikaviy va biologik xavfli chiqindilardan asrashga yo'naltirilgan. Atmosfera havosini asrashga qaratilgan davlat standartlari kiritilgan bo'lib, ular atmosferani himoya qilish rejimini, uning holatini nazorat qilish usullarini va shu kabi boshqa talablarni o'z ichiga oladi.

Atmosferaga zararli chiqindilarni chiqarganligi uchun pul jarimasi solinadi.

1997 yil 26 dekabrda O'zbekiston Respublikasida «Hayvonot dunyosini asrash va ulardan foydalanish to'g'risida»gi Qonun qabul qilinib, bu qonun Respublikamiz hududidagi hayvonlarni himoya qilish, ulardan to'g'ri foydalanish, ularning yo'qolib ketayotgan turlarini qayta tiklash, hayvon turlarining yashashi uchun qulay sharoitlar yaratish va tabiiy jamoalarning birligini asrab qolishni tartibga soladi va ularning huquqiy asoslarini yaratadi.

Qonunda aytilishicha, hayvonot dunyosi davlat mulki bo'lib qoladi va ular doimo davlat himoyasida bo'ladi.

1997 yil 26 dekabrda Respublikada «O'simliklar dunyosini asrash va ulardan foydalanish to'g'risida»gi Qonun ham qabul qilingan. Bu qonunda tabiiy sharoitda o'sayotgan o'simliklar dunyosini asrash, ulardan foydalanish, ularning genofondlarini saqlab qolish va qayta tiklash kabi masalalar o'zining huquqiy asosini topgan. Qonunda aytilishicha, o'simliklar dunyosi davlat mulki hisoblanadi va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarni buzganligi uchun jinoiy, ma'muriy, moddiy, intizomiy va mulkiy javobgarlik belgilangan bo'lib, ularning hammasi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksida va Fuqarolik hamda Mehnat Kodekslarida aks ettirilgan.

XULOSA

Keyingi vaqtlarda tabiiy resurslardan foydalanish keng miqyosda olib borilmoqda. Inson daryolar oqimining 10 foizidan foydalanmoqda. Bu daryo suvlaridan foydalanishning oxirgi chegarasigacha bordi degan so'z. Tabiiy zonalardagi ba'zi bir landlaftlarni inson tomomila yo'qotib bo'ldi.

Hozirgi vaqtda 100 – 120 mlrd tonnaga yaqin er osti boyliklar qazib olinmoqda, bu er yuzidagi har bir insonga bir yilda 25 – 30 tonnaga to'g'ri keladi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich bundan ham 2 – 3 barobar ko'pdir.

Inson ishlab chiqayotgan va qo'llayotgan moddalar hamda energiya miqdori uning biologik ehtiyojidan 100 barobar ortiq. Hisoblarga qaraganda hozir er yuzidagi insonlar ehtiyoji uchun yiliga 2 mln tonna oziq – ovqat, 10 mln tonna ichimlik suvi va nafas olishi uchun milliardlab m³ kislorod kerak bo'ladi.

Sanoatda foydalaniladigan resurslar va energiya kishilarning biologik ehtiyojidan taqqoslash mumkin bo'lmagan darajada ortiqdir.

Bir kunda 300 mln tonnaga yaqin moddalar va materiallar olinib qayta ishlanmoqda, 2 mlrd m³ suv olinmoqda. Aholi soni har 30 – 40 yilda 2 marta oshib borsa, resurslardan foydalanish esa har 8 – 10 yilda ikki barobar ko'paymoqda.

Er yuzida 10 mingdan ortiq suv omborlari mavjud bo'lib, ularda 7500 – 8000 km³ suv to'plangan. Ana shunday miqdordagi suv hajmini Volga daryosi kamida 25 – 30 yil ichida quyadi.

Er yuzida haydaladigan erlarning oltidan bir qismi sug'oriladigan erlarga to'g'ri keladi. Bu erlar har yili suv manbalaridan 1500 km³ (6-7 ta Volga daryosi suvicha) suv bilan sug'orishni taqozo etadi.

Ana shu suvlarning hammasi ham o'z mo'ljali bo'yicha sarf bo'lmasdan, ulardan noto'g'ri foydalanish natijasida bir qismi erlarni sho'rlantirishga yoki botqoqliklarning

paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Dasht ekosistemi degan tabiiy ekosistemalar deyarli yo'qolib bormoqda. Inson qo'li tegmagan o'rmonlar ham juda kam qolgan.

O'rmonlarning $\frac{2}{3}$ qismi yo'qotilgan. Er yuzi quruqligidagi o'rmonlar maydoni 75 % dan 25 % gacha kamayib ketgan. Hozirgi ekologik vaziyatning murakkabligi yana shundaki, inson tabiat resurslaridan ham texnikaviy taraqqiyotlardan ham voz kecha olmaydi. Buning ustiga aholi soni borgan sari ko'payib, fan – texnika taraqqiyoti kuchayib bormoqda.

O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy siyosati, uning integratsiyasi ishlab chiqarish bilan tashqi muhitning o'zaro muvofiqligi asosida o'tkazilmoqda. Bu siyosat xalqimiz va davlatimiz oldida turgan ekologik muammolarning naqadar jiddiy ekanligini sezgan holda olib borilmoqda.

Hozirgi kunda aholining ekologik xavfsizligi O'zbekiston Respubliasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan. Bundan tashqari, mustaqillik davrida tabiatni muhofaza qilish va ekologik muammolarni odilona echishga bag'ishlangan 100 dan ortiq hujjatlar qabul qilingan.

1. Ekologik munosabatlarni tartibga solib turuvchi asosiy hujjatlardan biri – Respublikamizda 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish Qonuni»dir. Bu qonun tashqi muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan to'g'ri (ratsional) foydalanish, ekologik sistemalar, tabiiy komplekslar va ayrim biologik ob'ektlarni asrashning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy negizini aniqlab beradi. Inson uchun toza va qulay muhit yaratishni kafolatlaydi. U tashqi muhitni asragan holda Respublikamizni stabil rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, biologik turli-tumanlikni, inson salomatligini va madaniy merosimizni saqlab qolishga imkon yaratadi.
2. 1992 yil 3 iyulda Respublikamizda «Davlat sanitar nazorati to'g'risida» Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun xalqimizning ekologik xavfsizligini tartibga solib, insonning toza tashqi muhitga ega bo'lish huquqini mustaqkamlaydi, har qanday iqtisodiy faoliyatning toza (sanitar holati) bo'lishini talab etadi, sanitar standartlar, me'yorlar va qoidalarining buzilishini man etadi.

3. 1993 yil 6 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni Respublikamizning suvga bo'lgan munosabatlarini tartibga soladi, xalq xo'jaligi, aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan suvdan to'g'ri foydalanishni ta'minlaydi, suvni ifloslanishi va sho'rlanish holatlarining oldini oladi hamda insonlarning suvga bo'lgan huquqlarini kafolatlaydi.
4. 1996 yil 27 dekabrda «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida» Qonun qabul qilinib, unda davlat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, jomoa birlashmalari va fuqarolarning atmosferani asrash bo'yicha faoliyatlarini tartibga solish huquqlari berilgan. Bu qonun atmosfera havosini toza tabiiy holda saqlashga uni kimyoviy, fizikaviy va biologik xavfli chiqindilardan asrashga yo'naltirilgan. Atmosfera havosini asrashga qaratilgan davlat standartlari kiritilgan bo'lib, ular atmosferani himoya qilish rejimini, uning holatini nazorat qilish usullarini va shu kabi boshqa talablarni o'z ichiga oladi.
5. Atmosferaga zararli chiqindilarni chiqarganligi uchun pul jarimasi solinadi.
1997 yil 26 dekabrda O'zbekiston Respublikasida «Hayvonot dunyosini asrash va ulardan foydalanish to'g'risida»gi Qonun qabul qilinib, bu qonun Respublikamiz hududidagi hayvonlarni himoya qilish, ulardan to'g'ri foydalanish, ularning yo'qolib ketayotgan turlarini qayta tiklash, hayvon turlarining yashashi uchun qulay sharoitlar yaratish va tabiiy jamoalarning birligini asrab qolishni tartibga soladi va ularning huquqiy asoslarini yaratadi.
6. Qonunda aytilishicha, hayvonot dunyosi davlat mulki bo'lib qoladi va ular doimo davlat himoyasida bo'ladi.
7. 1997 yil 26 dekabrda Respublikada «O'simliklar dunyosini asrash va ulardan foydalanish to'g'risida»gi Qonun ham qabul qilingan. Bu qonunda tabiiy sharoitda o'sayotgan o'simliklar dunyosini asrash, ulardan foydalanish, ularning genofondlarini saqlab qolish va qayta tiklash kabi masalalar o'zining huquqiy asosini topgan. Qonunda aytilishicha, o'simliklar dunyosi davlat mulki hisoblanadi va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. И.А.Каримов Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришиши оstonасида. Тошкент – 2011 й.
2. Табиат. Жамият. Маънавият (Президент Ислам Каримов асарларида экология масалаларининг ёритилиши).Тўлдирилган иккинчи нашри / Экологик таълим ва тарбия учун қўлланма // Сўз боши ва тузувчи А.Нигматов.- Т.: “Ўзбекистон”, 2009.
3. Турсунов Х.Т., Раҳимова Т.У. Экология .- Т.: “Chinor ENK”, 2006.
4. Nigmatov A. O'zbekiston Respublikasining ekologiya huquqi. - Т.: “Gofur G'ulom”, 2003.
5. Nigmatov A.N. Ekologiya nima?- Т.: “Turon iqbol”, 2005.
6. Sultonov R.S. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari.- Т . “Musiq”, 2007.
7. Турсунов Х.Т. Экология ва табиатни муҳофаза қилиш.-Т.: «Ўзбекистон», 1997.
8. Эргашев А. Умумий экология.- Т.: “Ўзбекистон”, 2003.
9. Эргашев А.Э., Шералиев А.Ш., Сувонов Х.А., Эргашев Т.А. Экология ва табиатни муҳофаза қилиш. Тошкент “Фан”. 2009.
10. Экологик таълимдан барқарор ривожланиш таълими сари /А.Нигматовнинг умумий таҳрири остида // Мустақил таълим учун қўлланма. - Т.:”Талқин”, 2007.
11. Ўзбекча-русча-инглизча экологик изоҳли луғат.-Т.: “Chinor ENK”, 2004.
12. Ўзбекистон Республикаси Қизил китоби / Красная книга Республики Узбекистан, в 2-х томах.-Т.: “Chinor ENK”, 2009.

Internet saytlari

1. www.ziynet.uz
2. www.uznature.uz
3. www.eco.uz
4. www.un.org/esa/sustdev/
5. www.unesco.org
6. www.unep.org
7. www.undp.org
8. www.unece.org/env/esd/
9. www.worldresources.org